

Ilmiy ishlar

Kafedrada quyidagi ilmiy - tadqiqot ishlari olib borildi

2019-2020 o'quv yilida kafedrada fan-ta'lim-ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani takomillashtirish maqsadida institut ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan ITI rejalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Jumladan:

- Cho'l yaylovlarini tanazzuldan ximoyalash va mahsuldorligini oshirishning samarali texnik yechimlarini ishlab chiqish;
- Ekin orasi tuprog'iga ishlov berishning suvtejamkor texnologiyasi va texnik vositasini takomillashtirish;
- Mashina traktor agregatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalash xizmatlari ko'rsatishda mehnat resurslaridan samaradorligini oshirish;

Ochiq maydonlar va ekin orasiga kuzgi bug'doy ekish oldidan sifatli uvalangan ishlov berib, egat shaklini shakllantirib beradigan suvtejamkor texnologiya va texnik vositani yaratish;

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonlarini bajarish uchun ishlov beriladigan maydon shakli va o'lchamlari hamda agregatning foydalanish ko'rsatgichlariga asosan uning eng maqbul tarkibini aniqlash;

Paxtachilik mashina-traktor agregatlarining ish unumini kinematik parametrlari va manevrchanligini oshirish hisobiga ta'minlash masalalari.

Kafedra ilmiy tadqiqot faoliyatining ustuvor yo'nalishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonlarini bajarishda energiya-resurstejamkor texnologiyalar hamda texnik vositalardan samarali foydalanish ko'rsatgichlari asosida ularning eng maqbul tarkibini aniqlash, ishlab chiqish va tadbiq etishga qaratilgan.

Kafedrada "Ekin orasi tuprog'iga ishlov berishning suvtejamkor texnologiyasi va texnik vositasini takomillashtirish", "Uzumzorlar va mevali bog'lar zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashishda qo'llaniladigan purkagichlarni takomillashtirish", "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonlarini bajarish uchun ishlov beriladigan maydon shakli va o'lchamlari hamda agregatning foydalanish ko'rsatgichlariga asosan uning eng maqbul tarkibini aniqlash", G'ildirakli traktorlar bazasidagi paxtachilik mashina-traktor agregatlarining kinematik parametrlarini takomillashtirish" mavzularida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, bunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga keyingi yillarda joriy etilayotgan rivojlangan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar, texnik vositalar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning joylarda samarali foydalanish va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

№	Ilmiy tadqiqot ishlar mavzusi	Maqsad va vazifalari to'g'risida qisqacha ma'lumot
1.	Ekin orasi tuprog'iga ishlov berishning suvtejamkor texnologiyasi va texnik vositasini takomillashtirish	Paxtadan bo'shagan dalalarda kuzgi bug'doy ekish oldidan ishlov berish va ekishda ishlatiladigan ishchi organlar ta'siri ostida tuproqlarni parchalash va egatchalar hosil qilish qonuniyatlarini aniqlash asosida resurstejamkorlikni ta'minlovchi agregatni yaratishning ilmiy-texnikaviy yechimini ishlab chiqishdan iborat.

Seyalkaning konstruksiyasi ishlab chiqilgan, sanoat nusxasini "Chirchiqqishloqmash" OAJ dan 29.06.2016 y. 521 - sonli tajriba - sanoat nusxasini ishlab chiqarishga tayyorligini bildiruvchi 29.06.2016 y 520 sonli

dalolatnoma, ishlab chiqarishga qabul qilganligi haqida 07.09.2016y. 699-sonli kafolat xati olingan; Olingan natijalar:

- Seyalkaning konstruktiv xujjatlarini (texnik topshiriq va texnik shartlar), konstruksiyasini, ekkichlar turlari, ularni ramada joylashtirish sxemalarini ishlab chiqish va sinovlarni o'tkazish "VMKV-Agromash" AJ ga topshirilgan (14.11.2016 y. 02-469-sonli ma'lumotnoma);
- Fermer xo'jaliklarining talablariga binoan energiya-resurstejamkor texnologiya asosida g'o'za qator orasiga kuzgi bug'doy urug'larini ekuvchi seyalkani "VMKV-Agromash" Ajda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilayotganligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2016 y 10 dekabrda 02/23-1271 sonli ma'lumotnomasi olingan;
- Tadqiqot ishlari natijalari oliy malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutining o'quv jarayoniga joriy etilganligi haqida (02.09.2016y) dalolatnoma olingan;
- Tajribaviy bug'doy ekish agregatining sinovlari 2008-2016 yillarda Toshkent (TIQXMMI ilmiy-ishlab chiqarish xo'jaligi) Andijon ("A.Tillaboev" f/x) va Namangan ("Samandarning sehrli sadosi" f/x) viloyatlari dalalarida o'tkazilgan. Natijada ish unumdorligi 1.26 marta ortishi, foydalanish xarajatlarining 21.5 % ga kamayishiga erishildi.
- Nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijasida g'o'za qator oralariga kuzgi bug'doyni tuproqqa o'tkir burchak bilan botib tor qatorlab ekuvchi ankerli ekish mashinasi ishlab chiqildi (6.7-rasm).
- Seyalka ekkichlari konstruksiyasining maxsus tagliklar bilan takomillashtirilishi natijasida ularning kuzgi bug'doy ekish chuqurligi bo'yicha barqarorligi ta'minlandi (6.8-rasm). Maxsus tagliklar bilan jixozlangan ekkichli seyalka ishlab chiqarish sharoitida keng dala sinovlaridan o'tkazildi.
- Dala sinovlari seyalkaning g'o'za qator oralarida kuzgi bug'doyni 5-6 sm chuqurlikda ravon, barqaror ekishga yaroqliligini ko'rsatdi.
- A.Igamberdiev. Ekkich. № FAP 20180116. 10.04.2020.
- E.T. Farmonov, A. K. Igamberdiev Sposob obrabotki pochvy i poseva semyan v aridnyx pastbixax i ustroystvo dlya yego osuschestvleniya. Uvodemlenie o prieme zayavki na poleznuyu model, № FAP 20190168, 26.08.2019